


2020- yilning yanvar-sentabr oylari uchun Buxoro viloyatida qurilish ishlari




Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatida jami **4 022,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **104,7 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha bo`linadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda**

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2677 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 251 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **104,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **62,4 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **114,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,5 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **124,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **29,1 %**) o'sishidir.




Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.10.2019- yil	01.10.2020- yil	
Buxoro viloyati	2426	2677	110,3
Buxoro sh.	822	882	107,3
Kogon sh.	92	104	113,0
tumanlar:			
Olot	55	63	114,5
Buxoro	190	221	116,3
Vobkent	103	116	112,6
G'ijduvon	175	199	113,7
Kogon	116	129	111,2
Qorako'l	81	94	116,0
Qorovulbozor	33	42	127,3
Peshko'	129	143	110,9

Romitan	210	218	103,8
Jondor	201	225	111,9
Shofirkon	219	241	110,0


**Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.10.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Buxoro sh. (32,9 %), Shofirkon (9,1 %) va Jondor (8,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **727,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **156,1 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **6,0 %** punktga ko'payib, **18,1 %** ni tashkil etdi.

**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qororvulbozor tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **80,3 %** i yoki 2019- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **105,5 %**), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **56,4 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **61,4 m.**), va Kogon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **26,3 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,6 m.**) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlaringning umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlaringni bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **52,2 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,5 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **99,6 %** ni tashkil etgan holda **2 099,3 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **29,7 %** ni tashkil etdi yoki **1 195,2 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **94,2 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **238,6** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 783,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,9 %** va **94,1 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Buxoro viloyati	4022,2	238,6	5,9	3 783,6	94,1
Buxoro sh.	964,5	70,7	7,3	893,8	92,7
Kogon sh.	273,2	15,1	5,5	258,1	94,5
tumanlar:					
Olot	282,1	12,0	4,3	270,1	95,7
Buxoro	351,5	14,4	4,1	337,1	95,9
Vobkent	106,4	3,8	3,6	102,6	96,4
G'ijduvon	397,2	10,3	2,6	386,9	97,4
Kogon	263,7	5,9	2,2	257,8	97,8
Qorako'l	219,0	44,8	20,5	174,2	79,5
Qorovulbozor	242,4	7,1	2,9	235,3	97,1
Peshko'	176,4	5,6	3,2	170,8	96,8
Romitan	283,8	15,2	5,4	268,6	94,6
Jondor	284,2	12,9	4,5	271,3	95,5
Shofirkon	177,8	20,8	11,7	157,0	88,3

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-sentabr**

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **54,2 %** i yoki **2 181,6 mlrd. so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

54,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **351,1 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **16,1 %** ni tashkil etdi

16,1 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **793,2 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **36,4 %** ni tashkil etdi.

36,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 037,3 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **47,5 %** ni tashkil etdi.


47,5 %



**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O’sish sur‘ati, % da	Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
Buxoro viloyati	4022,2	104,7	2181,6
Buxoro sh.	964,5	100,5	534,8
Kogon sh.	273,2	124,2	159,5
<i>tumanlar:</i>			
Olot	282,1	101,8	136,5
Buxoro	351,5	108,7	160,2
Vobkent	106,4	100,3	65,9
G’ijduvon	397,2	105,2	235,5
Kogon	263,7	104,9	185,1
Qorako'l	219,0	110,0	90,8
Qorovulbozor	242,4	103,8	65,7
Peshko'	176,4	101,5	122,9
Romitan	283,8	101,0	196,8
Jondor	284,2	108,1	110,2
Shofirkon	177,8	100,3	117,7

**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari**



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarinining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **6,9 %** ni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,5 %** ga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,2 %** punktga kamayib, **46,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,3 %** punktga kamayib, **46,3 %** ni tashkil etdi.

ulushi, % da




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **27,5 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **3,7 %** punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **72,5 %** (**3,7 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.

ulushi, % da

Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar



2019- yil

 **yanvar-sentabr**

2020- yil

 **yanvar-sentabr**

2020- yil
yanvar-sentabr

Buxoro viloyatida qurilish ishlari


13



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **10,4 %** punktga ko'paydi va **49,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **50,3 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **10,4 %** punktga kamaydi.

ulushi, % da






**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-sentabr oylarida**


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	4022,2	2579,7	755,1	687,4
Buxoro sh.	964,5	626,6	214,7	123,2
Kogon sh.	273,2	120,9	86,1	66,2
tumanlar				
Olot	282,1	199,1	14,3	68,7
Buxoro	351,5	228,1	49,1	74,3
Vobkent	106,4	72,8	12,5	21,1
G'ijduvon	397,2	303,2	59,0	35,0
Kogon	263,7	116,8	61,1	85,8
Qorako'l	219,0	139,4	60,0	19,6
Qorovulbozor	242,4	74,1	52,4	115,9
Peshko'	176,4	141,8	29,6	5,0
Romitan	283,8	217,1	45,1	21,6
Jondor	284,2	236,6	27,5	20,1
Shofirkon	177,8	103,2	43,7	30,9



Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari




Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlaringin umumiy hajmida eng yuqori ulush Jondor tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **83,3** % i yoki **236,6** mlrd. so'm), shuningdek, Peshko' tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **80,4** % i yoki **141,8** mlrd. so'm), Romitan tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **76,5** % i yoki **217,1** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Kogon shahriga (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining **31,5** % i yoki **86,1** mlrd. so'm), Qorako'l tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining **27,4** % i yoki **60,0** mlrd. so'm), Shofirkon tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmida **24,6** % yoki **43,7** mlrd. so'm) da qayd etildi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, jamiga nisbati, % da




2020-yil
yanvar-sentabr

Buxoro viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Qorovulbozor tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining **47,8** % i yoki **115,9** mlrd. so'm), Kogon tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining **32,5** % i yoki **85,8** mlrd. so'm), Olot tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining **24,3** % i yoki **68,7** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mIrd. so'm



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'ssatkichi Buxoro sh. (964,5 mIrd. so'm), G'ijduvon (397,2 mIrd. so'm), Buxoro (351,5 mIrd. so'm), Jondor (284,2 mIrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



2020- yil
yanvar-sentabr

Buxoro viloyatida qurilish ishlari



BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Tel.: 65 223-81-99